Elektrolizerga CuSO_4 eritmasidan quying va unga grafit elektrodlarini tushirib, tok manbaiga ulang. Birinchi cha minutdan so'ng katoda mis ajralib chiqishini kuzating. Katod va anotda sodir bo'ladigan reaksiyalar tenglamalarini yozing. Elektrodning kutblarini almashtirib yana tok manbaiga ulang. Misning anotdan katodga o'tishini kuzating va tegishli reaksiya tenglamalarini yozib, xisobotga kiring.

LABORATORIYA ISHI № 11. KOORDINATSION BIRIKMALAR. KOORDINATSION BIRIKMALARNING FORMULASINI TUZISH, LIGANDLAR TABIATI QARAB SINFLANISHI, BOSKICHLI DISSOTSIATSIYALANISH, BEQARORLIK KONSTANTASI. KOORDINATSION BIRIKMALAR ISHTIROKIDA BO'LADIGAN OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARINI TAXLIL QILISH.

Qurilma va reaktivlar: shtativ (probirkalar bilan) . Gorelka. Eritmalar: 0,5 n. nikel sulfat; 0,5 n. yuvchi natriy; 0,5 n. ammoniy gidroksid; 0,05 n. va 1 n. kumush nitrat; 0,5 n. mis sulfat; 0,5 n. natriy tiosulfat; 0,5 n. vismut (III) nitrat; 0,5 n. kaliy yodid; 0,5 n. temir (III) xlorid; 0,1 n. qizil qon tuzi; 0,5 n. temir (II) sulfat; temir ammoniyli achchiqtosh; 0,5 n. bariy xlorid; 0,1 n. natriy yodid; 0,1 n. natriy sulfid; 0,1 n. sariq qon tuzi; 2 n. xlorid kislotasi; kons. kobalt xlorid, 25 % li ammiak.

tajriba. Kompleks kationli birikmalarning olinishi.

nikel ammiakatini hosil qilish.

Probirkaga 5—6 tomchi nikel sulfat eritmasidan solib, ustiga suyultirilgan o'yuvchi natriy eritmasidan o'lchama hosil bo'lguncha tomchilab tomizing va aralashmani chayqatib turing. Hosil bo'lgan o'lchamaning rangiga e'tibor berib, reaksiyasini molekulyar va ionli shaklda yozing.

O'lchamani ikkiga bo'lib, bir qismiga o'lchama erib ketguncha ammoniy gidroksid eritmasidan qo'shing. Hosil bo'lgan eritmaning rangini o'lchama rangi bilan taqqoslang. Kompleks birikmada Ni ning koordinatsion soni 6 ekanligini hisobga olib, reaksiya tenglamasini yozing;

kumush ammiakatini hosil qilish.

Probirkaga osh tuzi eritmasidan 10—12 tomchi solib, ustiga o'lchama tushguncha kumush nitrat eritmasidan qo'shing. Reaksiya tenglamasini molekulyar va ionli shaklda yozing.

Hosil bo'lgan o'lchama erib ketguncha ammiak eritmasidan qo'shing. Kompleks birikmada Ag^+ ning koordinatsion soni 2 ekanligini hisobga olgan holda reaksiya tenglamasini yozing.

Hosil bo'lgan eritma $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$ ni keyingi tajriba uchun saqlab qo'ying;

mis ammiakatini hosil qilish.

Probirkaga mis (II) sulfat eritmasidan 10—12 tomchi solib, ustiga havo rang o'lchama hosil bo'lguncha ammiak eritmasidan tomchilab qo'shing. So'ngra o'lchama erib ketguncha NH_4OH eritmasidan qo'shing.

O'lchamaning erib ketishiga va hosil bo'lgan eritma rangiga e'tibor bering. Hosil bo'lgan kompleks birikmada Cu^{2+} ning koordinatsion soni 4 ekanligini hisobga olib, o'lchamaning hosil bo'lishi va uning reaksiyasi tenglamalarini yozing.

Hosil bo'lgan $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$ eritmani keyingi tajriba uchun saqlab qo'ying.

LABORATORIYA ISHI №12. 1 VA 2-GURUH S-ELEMENTLARINING KIMYOVIY XOSSALARI, KISLOROD, SUV, METALLMASLAR BILAN O'ZARO TA'SIRLANISHI, OKSIDLARI, PEROKSIDLARI XOSSALARI O'RGANISH. SUVNING QATTIQLIGINI ANIQLASH VA YO'QOTISH USULLARINI TAXLIL QILISH .

Qurashuv asboblari: Probirkalar. Qopqoqli kristallizator. Pinset. Pichoq. Filtr qog'ochi. Chinni tigeli. Chinni uchburchak. Gaz gorelkasi. Chinni hovoncha dastasi bilan. Shisha nayli probirkalar. Shisha roqcha. Kolba (250 ml) . CO₂ olish uchun Kipp apparati.

Reaktivlar: Natriy (metall) . Lakmus qog'ochi. Fenolftalein. Kristall holdagi Na₂S; NaCl, Na₂CO₃; itimlar: 0,5 n. KMnO₄; 2n. H₂SO₄; 2n. Be₂SO₄; 2n. NaOH; 2n. Na₂CO₃; 2n.HCl; 2n.HNO₃; 2n.NH₄Cl; . SrCl₂; 2n. Na₂SO₄;

1-tajriba. Ishqoriy metallarga suvning ta'sirini o'rganish.

Shoq bilan litiy yoki natriy metallidan no'hotdek bo'lagini kesib oling. Uni filtr qog'och yordamida rosin yuqidan tozalang. Kristallizatorning yarmigacha suv quyib, pinset yordamida natriy yoki kaliy 'lakchasini unga tushiring. Kristallizator yuzasini himoyalovchi shisha plastinka bilan yoping. Chunki oksiya oxirida kuchsiz portlash sodir bo'lib, eritma va metall qoldiqlari sachrashi mumkin. Metallning v bilan o'zaro ta'sirini va vodorod ajralib chiqishini kuzating. natriy suv bilan ta'sirlashganda ajralib iqayotgan vodorodning alanganishi kuzatiladi. Gaz ajralib chiqishi tugagach, eritmaga 1—2 tomchi olftalein tomizing. Nimani kuzatasiz? Nimaga bunday bo'ldi? Reaksiya tenglamasini molekulyar va lli shakllarda yozing.

ajriba. Berilliy gidroksidning olinishi va uning xossalari.

Probirkaga 8—10 tomchi 2 n. berilliy sulfat eritmasidan solib, xushyorlik bilan cho'kma hosil bo'lguncha nchilab, 2 n. o'yuvchi

triy eritmasidan tomizing (cho'kma erib ketmasin) . Hosil bo'lgan cho'kmani ikki probirkaga teng ib bo'lib, birinchisiga 2 n. sulfat kislota eritmasidan, ikkinchisiga ko'proq ishqor eritmasidan (ikkala probirkada cho'kma erib ketguncha) tomchilatib qo'shing. Reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli aklda yozing.

ajriba. Magniy metalliga kislotalarning ta'sirini o'rganish. Ikkita probirka olib, ularning har biriga xil miqdorda magniy kukunidan soling. Birinchi probirkaga suyultirilgan 2 n. xlorid kislota tmasidan, ikkinchi probirkaga esa 2n. nitrat kislotalardan bir necha tomchidan qo'shing. Probirkalarda alib chiqayotgan gazlarning rangiga e'tibor berib, reaksiya tenglamalarini yozing.

ajriba. Kalsiyning suvga ta'sirini aniqlash.

Probirkaning 1/4—qismiga distillangan suv solib, ustiga moshdek kalsiy metall bo'lagini pintset rdamida tashlang. Qanday gaz ajralib chiqadi? Nima uchun suv loyqalanadi? Ishqor hosil bo'lganligini tomchi fenolftalein yordamida aniqlash mumkin. Oksidlovchi va qaytaruvchilarni aniqlab, reaksiya igtamasini yozing.

LABORATORIYA ISHI № 13. BOR VA ALYUMINIY. BORAT KISLOTANING OLINISHI, XOSSALARI. BURANING GIDROLIZI. ALYUMINIYNING KISLORODLI BIRIKMALARI, GIDROKSIDLARI, KISLOTA VA ISHQORLAR BILAN REAKSIYASI. ALYUMINIY TUZLARINING GIDROLIZINI O'RGANISH .

Qurashuv asboblari: ko'k va qizil lakmus. Chinni kosachalar, tigellar, fenolftalein.

Reaktivlar: kons. H₂SO₄ (ρ=1,84 g/sm³) , H₃BO₃ (kr.) , etil spirti, Na₂B₄O₇ (kr.) , (kr) kons. HCl (ρ=1,19 g/sm³) . HNO₃ (ρ=1,4 g/sm³) . Al bo'lakchalari. NH₄Cl (kr.) .

Itimlar: Na₂B₄O₇—to'yingan issiq: AgNO₃ (0.05 n) . 2n. CuSO₄ ; 2n. HCl; 2n. H₂SO₄ ; 2n. HNO₃ ; . NaOH; 0.5n. Al₂(SO₄)₃; 2n. CH₃COONa; 2n. Na₂CO₃.

ajriba. Bor kislotaning olinishi.

ra ($\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$) ning konsentrlangan issiq eritmasidan 5—6 tomchisini alohida probirkaga solib, unga nsentrlangan sulfat kislota dan 2—3 tomchi qo‘shing. Hosil bo‘lgan H_3BO_3 ning eruvchanligini maytirish uchun probirkadagi aralashmani tezroq soviting. Mayda oq kristallar hosil bo‘lishini kuzatib, iksiya tenglamasini molekulyar va ionli shaklda yozing.

ajriba. Etilborat efirining olinishi va uning yonishi.

chikroq chinni kosachaga yoki tigelga ozroq ortoborat kislota kristallaridan solib, ustiga 1—2 tomchi nsentrlangan H_2SO_4 tomizing. Aralashmaga yana 5—6 tomchi etil spirtidan qo‘shib, shisha tayoqcha an aralashtiring. Reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan etilborat $\text{B}(\text{OC}_2\text{H}_5)_3$ efirini yoqing. anganing o‘ziga xos rangiga e‘tibor berib, etilborat efirning hosil bo‘lishi va yonishi reaksiya iglamalarini yozing.

ajriba. Buraning gidrolizi.

obirkaga 1 ml distillangan suv quyib, unga 2—3 dona bura kristallaridan tashlang, eriting. Ko‘k va zil lakmus qog‘ozlari yoki bir tomchi fenoltalein bilan ta’sir etib, eritmaning muhitini aniqlang. raning bosqichli gidrolizlanishini hisobga olgan holda (birinchi bosqichda H_3BO_3 va NaBO_2 , inchi bosqichda yana H_3BO_3 va NaOH) gidroliz tenglamasini molekulyar va ionli shaklda yozing.

ajriba. Alyuminiyning kislotalarga munosabati.

ikkita probirka olib, ularning har biriga kichikroq alyuminiy bo‘lakchalaridan soling. Birinchi obirkaga suyultirilgan 2n. HCl eritmasidan 8—10 tomchi, ikkinchisiga esa shuncha ($\rho=1,19 \text{ g/sm}^3$) nsentrlangan HCl tomizing. Probirkalarning qaysi birida reaksiya shiddat bilan borishiga va ajralib iqayotgan gazga e‘tibor berib, reaksiya tenglamalarini yozing;

ikkita probirka olib, ularning har biriga kichikroq alyuminiy bo‘lakchalaridan soling. Birinchi obirkaga suyultirilgan 2n. H_2SO_4 eritmasidan 8—10 tomchi, ikkinchisiga shuncha hajmda ($\rho=1,84 \text{ sm}^3$) konsentrlangan H_2SO_4 tomizib, reaksiya shiddatini yuqoridagi HCl ta’siri bilan solishtiring. Ifat kislota solingan probirkalarni ehtiyot bo‘lib qizdiring. Suyultirilgan H_2SO_4 ta’siridan vodorod, nsentrlangan kislota ta’siridan qizdirilmagan kislota da SO_2 , qizdirilganda S ajralib chiqishini hisobga gan holda reaksiya tenglamalarini yozib, koeffitsiyentlarini qo‘ying;

ikkita probirka olib, ularning har biriga kichikroq alyuminiy bo‘lakchalaridan soling. Birinchi obirkaga suyultirilgan 2n. HNO_3 eritmasidan 8—10 tomchi, ikkinchisiga shuncha hajmda ($\rho=1,4 \text{ sm}^3$) konsentrlangan HNO_3 tomizib, suyultirilgan va konsentrlangan HNO_3 ning alyuminiyga sirini kuzating. Probirkalarni kuchsiz olovda qizdiring. Natijada suyultirilgan HNO_3 ta’siridan NO_3^-

ig NO gacha qaytarilishini hamda konsentrlangan HNO_3 ta’siridan NO_3^-

ig NO_2 gacha qaytarilishini hisobga olgan holda reaksiya tenglamalarini yozib, koeffitsiyentlarini ‘ying.

latma: sovuq konsentrlangan HNO_3 ga alyuminiy ta’sir ettirilganda, alyuminiyning sirti oksid parda an qoplanib erish kuzatilmaydi. Eritma isitilganda avval sekin so‘ng shiddatli reaksiya ketishini utmang!

ajriba. Alyuminiyning ishqorga munosabati.

obirkaga 8—10 tomchi 2n. o‘yuvchi natriy eritmasidan solib, unga kichikroq bir bo‘lak alyuminiy hlang. Vodorod ajralib chiqishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

ajriba. Alyuminiy tuzlarining gidrolizi.

alyuminiy nitrat va alyuminiy sulfat tuzlari eritmasini qizil va ko‘k lakmus qog‘ozlari bilan sinab ‘ring. Kuzatilgan hodisaga qarab, shu tuzlarning bosqichli gidroliz reaksiyalari tenglamalarini lekulyar va ionli shaklda yozing;

probirkaga alyuminiy sulfat eritmasidan 8—10 tomchi solib, unga shuncha hajmda natriy atsetat tmasidan qo‘shing. Eritmalarni qo‘shgandan cho‘kma hosil bo‘lmaydi. Aralashma qaynatilganda esa

uminiyning asosli tuzi ($\text{Al}(\text{OH})_2\text{CH}_3\text{COO}$) cho'kmaga tushishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing;

probirkaga 5—6 tomchi alyuminiy sulfat eritmasidan solib, ustiga shuncha hajmda soda eritmasidan nizing. Oq iviq cho'kma hosil bo'lib, gaz ajralib chiqishini kuzating. Hidroliz tenglamasini yozing. Hidrolizning oxirgi bosqichigacha to'liq borishini tushuntiring;


probirkaga 4—5 tomchi alyuminiy sulfat eritmasidan solib, unga bir necha tomchi 2n o'yuvchi natriy eritmasidan (cho'kma hosil bo'lib, to'liq erib ketguncha) qo'shing. Hosil bo'lgan natriy tetragidroksodiakvoalyuminat eritmasiga 5—6 tomchi suv va bir necha dona ammoniy xlorid kristallaridan aralashtiring. Aralashmani qaynaguncha qizdiring. Cho'kma hosil bo'lishini va gaz ajralib chiqishini (hididan bilasiz) kuzating. Reaksiya tenglamalarini yozing.

LABORATORIYA ISHI №14. UGLEROD VA KREMNIY. KO'MIRNING ADSORBSION XOSSASI. UGLEROD (IV) OKSIDI OLINISHI, XOSSALARI. KARBONAT KISLOTA TUZLARINING GIDROLIZI VA TERMIK PARCHALANISHI. KREMNIY OKSIDLARI, KISLOTALARI VA UNING TUZLARI GIDROLIZINI O'RGANISH .

1. KO'MIRNING ERITMADAN MODDALARNI YUTISHI

Ko'mirning eritmadan moddalarni yutishiga ishonch hosil qilish uchun diametri 3-4 sm va uzunligi 30-40 sm bo'lgan shisha nay olib, uning bir uchini to'g'ri shisha nay o'tkazilgan probka bilan bekiting. Probka nayga ozroq paxta joylang, so'ngra aktivlangan ko'mir (uni eski protivog'azdan olish mumkin) qo'yib, katta karbolen — kattaligi 2-3 ml li bo'laklar qilib maydalangan meditsina ko'miri seping. Nayga ozroq suv qo'shilgan suv quyding, Suyuqlik ko'mir qatlami orqali o'tib, rangsizlanadi (34-rasm). Agar suyuqlik batamom rangsizlanmasa, suvni yana bir marta ko'mir orqali o'tkazing.

Yutishni qanday yutishni qanday adsorbilashini tekshirib ko'ring. Buning uchun shisha nayni probkadan olingan pista ko'mir bilan to'ldiring. Agar mos shisha nay topilmasa, o'rniga kichikroq lampa shishadan ham foydalanish mumkin.



34-rasm. Ko'mirga eritmadan buyuq moddalarni yuttirish asbobi.


KREMNIY. SILIKATLAR

Silikatlar silikat kislotaning tuzlaridir. Eng oddiy silikat kislota - metasilikat kislota H_2SiO_3 ning tuzlari oddiy silikatlardir, masalan Na_2SiO_3 , K_2SiO_3 . Boshqa ancha murakkab silikat kislotalarning tuzlari murakkab silikatlar jumlasiga kiradi. Murakkab silikatlar tarkibida, ko'pincha, alyuminiy (alyumosilikatlar), temir, xrom va boshqa metallar bo'ladi. Silikatlar tabiatda nihoyatda ko'p tarqalgan (dala shpatlari, slyuda, gil va boshqalar). Ko'pchilik silikatlar, masalan, oddiy shisha, eruvchan shisha, tsement va boshqalar sun'iy yo'l bilan olinadi.

Tabiiy silikatlar ham, sun'iy silikatlar ham, inson hayotida ayniqsa qurilish materiallari sifatida katta ahamiyatga ega.

1. NATRIY SILIKATNING (ERUVCHAN SHISHANING) OLINISHI BA ISHLATILISHI

Kremniy (IV)-oksid kislotali oksid bo'lganligi sababli u ishqorlar, masalan o'yuvchi natriy bilan reaksiyaga kirishadi:



1- tajriba. Chinni kosachaga tarkibida 18 g NaOH bo'lgan eritma va 30 ml suz quyiladi. Kosacha suv hammomiga qo'yiladi va shisha tayoqcha bilan aralashtirib turib, yaxshilab maydalangan 15 g qum solinadi.

Kosacha qumtuproqning hammasi ishqor bilan reaksiyaga kirishib bo'lguncha suv hammomida tutib turiladi.

Suv hammomida bug'latish yo'li bilan silikat eritmasini qiyomsimon holatga keltirish yoki qattiq tuz olish mumkin.

Kaliy silikat ham shu usulda olinadi, faqat unda 15 g qumtuproqqa 25 g o'yuvchi kaliy qo'shiladi.

LABORATORIYA ISHI №15. AZOT VA FOSFOR. AMMIK VA GIDRAZINNING OLINISHI, XOSSALARI. NITRAT KISLOTA TUZLARINING QAYTARUVCHILIK XOSSALARINI IZOHLASH. FOSFORNING KISLOROD, KISLOTALAR BILAN REAKSIYAGA KIRISHUVI. FOSFAT KISLOTA TUZLARI GIDROLIZINI O'RGANISH.

.AMMIK SINTEZ QILISH


Zavodlarda ammiak katalizator ishtirokida va yuqori bosim ostida sintez qilinadi. Ammo bunday sharoitda barcha azot-vodorod aralashmasining ko'pi bilan 20% i ammiakka aylanadi. Laboratoriya sharoitida ammiak atmosfera bosimi ostida sintez qilinadi. Bunda ammiak juda oz miqdorda hosil bo'lsa ham, bu gazni ishqoriy indikatorlar yordamida payqash mumkin.

1) Juda oz miqdorlarda ammiak hosil qilish;

Tajriba uchun 29- rasmda ko'rsatilganidek asbob yoqing.

Kipp apparatidan chiqayotgan vodorodning tozaligi sinab ko'rilgach, uni rezina probka orqali o'tkazilgan nay ichida yoqib ko'ring. Shundan keyin yumaloq tubli (hajmi kamda 1 litrli) kolbani shu probka bilan bekiting. Kolba og'zidagi probkadan bukilgan nay o'tkazilgan (nayda qisqich bo'lib, u vodorod yondirilayotgan paytda berk bo'ladi); bu nay qaytarilgan temir kukuni (katalizator) solingan keng shisha nayga ulangan bo'ladi. Katalizatorli nayni gaz o'tkazgich nay o'rnatilgan probka bilan bekiting, gaz o'tkazgich nayning uchiga fenoltaleinning spirtidagi eritmasi shimdirilgan fil'tr qog'oz lentasi tushirilgan probirkani kiydirib qo'ying.

Yonayotgan vodorod alangasi kichikroq bo'lishini Kipp apparatining jo'mragidan foydalanib, rostlab turing. Alangani diqqat bilan kuzatib boring. Alanga o'chgach, Kipp apparatini tezda bekiting, chunki kolbada vakuum hosil bo'ldi; Kipp apparatidagi vodorod bu vakuumni to'ldirish uchun etmasligi va natijada kolbaga havo kirishi mumkin. Kipp apparatida kislota yuqorigi sharga ko'tarilgach, jo'mrakni oching, bunda vodorod sarf bo'lgan kislorod o'rniga kiradi. Binobarin, kolbada azot va vodorod aralashmasi hosil bo'ladi; kolbada havo tarkibidagi kislorod vodorod bilan birikkandan keyin qolgan azot aralashma hosil qiladi.



29- rasm. Atmosfera azotidan ammiak olish asbobi.

Endi kolbadan chiqayotgan naydagi qisqichni ochish mumkin. Kipp apparatining jo`mragini burab, vodorod oqimi kamaytiriladi. Gazlar aralashmasi katalizatorli (qaytarilgan temir kukuni) nay orqali o`tadi. Katalizator spirt lampasi yoki gaz gorelkasi alangasida bir oz isitiladi. Azot va vodorod aralashmasi ratalizator ustidan o`tib, qisman ammiakka aylanadi, ammiak hosil bo`lganligi fenolftalein eritmasi bilan ho`llangan fil`tr qog`ozning qizarishiga qarab aniqlanadi. Agar tajriba uchun juda aktiv temir katalizator olinsa, gaz o`tkazgich naydan chiqayotgan ammiakning hidi yaxshi seziladi.

LABORATORIYA ISHI №16. OLTINGUGURT, OKSIDLOVCHI VA QAYTARUVCHI XOSSALARINI ANIQLASH, SULFIDLARI, GIDROSULFIDLAR VA TIOSULFATLAR BIRIKMALARINI XOSIL QILISH VA XOSSALARINI O`RGANISH

SUYUQLANMADAN PRIZMATIK OLTINGUGURT OLISH

Tajriba. Kichikroq chinni tigelga maydalangan oltingugurt to`ldiring, tigelni shtativ halqasiga joylashtiring va oltingugurt shisha tayoqcha bilan aralashtirib turib, tigelni qizdiring (agar oltingugurt alanganib ketsa, tigelning qopqog`ini yoping va spirt lampasini ma`lum vaqtgacha olib qo`ying). Suyuqlangan oltingugurt asta-sekin qizdirilganda uning sariq rangi o`zgarmasligi kerak.

Oltingugurt suyuqlangandan keyin qizdirishni to`xtatib, uni sekin soviting, bunda oltingugurt sirtini doimo kuzatib turing. Tigel`devorlarida ignasimon kristallar paydo bo`la boshlagach, tigelni sochiq bilan ushlab olib, suyuq oltingugurt tezda sovuq suvli stakanga quying. Tigelning ichki qismida deyarli rangsiz prizmatik oltingugurt ninachalari qoladi.

2. OLTINGUGURTNI SUYUQLANTIRISHDAN PLASTIK OLTINGUGURT OLISH

Oltingugurt qizdirilganda quyidagicha o`zgaradi:

119°S ga yaqin temperaturada oltingugurt suyuqlanadi va oson harakatlanadigan tilla rang suyuqlikka aylanadi,

119° bilan 250°S orasida oltingugurt qo`ng`ir rangga kirib, quyuqlashadi. Oltingugurt 250°S ga yaqin temperaturada qizil-qung`ir rangga kiradi va qovushoq bo`lib qoladi; probirka yoki tigel`to`nkarilganda oltingugurt to`kilmaydigan holatga keladi.

250° dan 350°C gacha temperaturada oltingugurt asta-sekin suyuqlanadi. Uning rangi to`k- qo`ng`ir bo`lib qoladi.

350°C ga yaqin temperaturada oltingugurt yana oson harakatlanuvchi suyuqlikka aylanadi; uning rangi o`zgaradi. 444,5°S da oltingugurt qaynaydi. Oltingugurt bug`lari to`q sariq rangli bo`ladi.

Oltingugurt asta-sekin sovitilsa, teskari xodisalar ro`i beradi.

Tajriba. Kartondan doiracha qirqib oling, bir parcha faner va suvli stakan tayyorlang.

Probirka hajmining 2/3 qismiga qadar oltingugurt to'ldirib, uni metall shativ halqasiga o'rnatib va spirt lampa alangasida ehtiyotlik bilan qizdiring.

Temperatura ko'tarilishi bilan suyuqlangan oltingugurtning rangi o'zgarishini kuzating- Probirkani chayqatib, oltingugurt quyushganiga (250°C ga yaqin temperaturada) ishonch hosil qilganingizdan keyin probirkani faner ustiga to'nkaring. Bunda oltingugurt to'kilmaydi.

Probirkani yana qizdirib, oltingugurtning asta-sekin suyuqlanishiga va rangi qorayishiga e'tibor bering.

Oltingugurt qaynaganida uning bug'lari tiniq to'q sariq ekanligiga e'tibor bering; oltingugurt bug'lari qaynayotgan oltingugurt ustida yaxshi ko'rinib turadi (probirka orqasiga oq qog'oz varag'i qo'yib turilsa, oltingugurt bug'i yanada yaxshiroq ko'rinadi).

Qaynagan oltingugurtning ingichka oqim bilan sovuq suvli stakanga quying. Agar oltingugurt o't olib ketsa, vertikal holatda turgan probirka og'ziga karton doirachani yoping (bunda oltingugurt o'chadi). Oltingugurtning suvli stakandan oling va uni cho'zib ko'ring. Bunda plastik oltingugurt hosil bo'lganligini ko'rasiz. Plastik oltingugurt bo'lagini keyingi mashg'ulotgacha qoldiring va unda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini qayd qiling,


1. AJRALIB CHIQUYOTGAN VODOROD YORDAMIDA MISNI SUL'FIDAN QAYTARISH

Vodorod va kislorod, ayniqsa murakkab moddalardan ajralib chiqayotgan paytida, ximiyaviy jihatdan aktiv bo'ladi, chunki bu vaqtda ularning atomlari molekula birikishga ulgurmagan bo'ladi.

Bunday aktiv vodorod mis sulfid bilan reaksiyaga kirishib, misni siqib chiqaradi.

Tajriba. 24- rasmda tasvirlanganidek asbob yig'ing. Stakanga natriy (Sulfatning yarim molyar eritmasidan quyib, unga biri ko'mir, ikkinchisi esa mis sulfid bilan qoplangan ikkita mis elektrod tushiring. (Mis sterjenni mis sulfid bilan qoplash uchun uni qaynayotgan oltingugurt bug'iga tutishning o'zi kifoya). Elektrodlarni doimiy tok manbaiga, masalan, umumiy kuchlanishi 6-8 v bo'lgan akkumulyatorlar batareyasiga yoki o'zgaruvchan tok to'g'rilagichiga ulang. Natriy sulfat eritmasi elektroliz qilingan.

Katodda vodorod olinadi; bu vodorod ajralib chiqish paytida mis sulfid bilan reaksiyaga kirishadi: rasm. Mis sulfidan misni ajralib chiqayotgan vodorod ta'sirida qaytarish.



Mis sulfidning qora dog'i yo'qolib, sof mis qoladi. Katodda vodorod sulfid paydo bo'lganligini qo'rg'oshin tuzi eritmasi bilan ho'llangan qog'oz yordamida bilish mumkin: qogozda qo'rg'oshin sulfid - qora rangli modda hosil bo'lishi natijasida qog'oz qorayib qoladi.

2. SUYUQ OLTINGUGURT (IV) OKSIDNING OLINISHI

Odatdagi sharoitda gaz holidagi oltingugurt (IV)-oksid hatto normal atmosfera bosimida va oddiy sovutuvchi aralashmalar bilan sovutilgandayoq osongina suyuq holatga o'tadi.

Tajriba. 25- rasmda ko'rsatilganidek asbob yig'ing. Kolba 1 hajmining uchdan bir qismi qadar natriy sulfit Na_2SO_3 solib, kolba og'zini tomizgich voronka 2 za gaz o'tkazgich nay 3 o'tkazilgan probirka bilan bekiting. Kolbani rezina nay orqali yuvgich sklyanka 4 bilan tutashtiring; sklyankada sulfid angidridga aralashgan namlikni yutib qolish uchun konsentrlangan sulfat kislotasi bo'ladi Yuuvish sklyankasini ingichka U- simon nay 5 ning bitta tirsagiga ulang, nayning ikkinchi tirsagini aspiratorga tutashtiring.

25- rasm. Suyuq oltingugurt (IV)-oksid olish:

1 — sul`fit angidrid olinadigan kolba; 2 — kontsentrlangan sul`fat kislota solingan tomizgich voronka; 3 — gaz o`tkazgich nay; 4 — kontsentrlangan sul`fat kislota solingan yuvgich sklyanka; 5 — suyuq sul`fit angidrid yig`iladigan U-simon nay.

Aspiratorga U- simon nayni qor yoki maydalangan muz bilan osh tuzi aralashmasi solingan stakanga botiring. Bu aralashma quyidagicha tayyorlanadi: har bir qoshiq tuzga 3 qoshiq qor olinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Qor bilan tuz aralashmasi shisha nayga yaxshi yopishib turishini, qor va tuz bilan shisha orasida tirqish qolmasligini kuzatib turish lozim.

Asbob yig`ilgandan keyin aspiratorning jo`mragini oching, so`ngra kolbaga voronka orqali kontsentrlangan sul`fat kislotadan ozroq quying va kolba 1 ni isiting.

Sul`fat kislota bilan natriy sul`fidning o`zaro ta`siri natijasida hosil bo`ladigan oltingugurt (1U)-oksid yuvish sklyankasi orqali o`tib, namdan tozalanadi va sovitilayotgan U-simon nayga o`tib, qisman suyuqlikka aylanadi, bir qismi esa gaz holida chiqadi va aspiratoridagi suvga yutiladi.

Tajriba boshlangandan 10-15 minut o`tgach, U- simon nayda ma`lum miqdor suyuq oltingugurt (IV)-oksid yig`iladi. Uni suvdan farq qilish oson, chunki u odatdagi temperaturadayoq qaynay boshlaydi. Agar U- simon nayning suyuq oltingugurt (IV)-oksid turgan joyiga qo`l tegizilsa, suyuqlikning qaynashi tezlashadi.

3. SUL`FAT ANGIDRIDNING OLINISHI

Oltingugurt (IV)-oksidni katalizator ishtirokida kislorod bilan oksidlab sul`fat angidrid olish mumkin.

Bu reaksiyada platinalangan asbest eng yaxshi katalizator hisoblanadi. U hozirgi vaqtda sanoatda ishlatilmaydi, chunki u juda qimmat bo`lib, ko`pchilik moddalarning ozgina miqdori ham (kontakt zaharlar) unga tez ta`sir etadi. Laboratoriya tajribalari uchun katalizator sifatida temir va xrom oksidlari hamda vanadiy birikmalaridan foydalanish mumkin.

Sul`fat angidrid havodan namlikni juda shiddatli ravishda yutishi sababli, gaz holida havoda tutaydi, hosil bo`lgan sul`fat kislotaning mayda tomchilari esa havo bilan aralashib, tuman hosil qiladi. Havoda oltingugurt (IV)-oksid tutamay, sul`fat angidrid tutaganligi sababli tuman hosil bo`lganligiga qarab oksidlanish reaksiyasi haqiqatan ham sodir bo`layotganligini bilish mumkin.


Sul`fat angidrid sovitilganda suyuq holatga o`tadi, tajriba uzoq vaqtga cho`zilsa va angidrid qattiq sovitilsa, u ipak tolalari yoki uzun chiroyli ninalar shaklida ham hosil bo`lishi mumkin. Bu tajriba uchun oltingugurt (IV)- oksidni misga sul`fat kislota ta`sir ettirib olish mumkin.

Tajriba. 26- rasmda ko`rsatilganidek asbob yig`ing. Kolba 1 ga mis bo`laklaridan tashlang, saqlagich sklyanka 2 ga esa suyultirilgan sul`fat kislota yoki suv quying, yuvish sklyankasi 3 ga kontsentrlangan sul`fat kislota quyib, keng shisha nay 4 ga katalizator (temir (III)-oksid yoki xrom (III)-oksid, yoxud maydalangan asbest ustiga sepilgan boshqa katalizator) joylang. Idish 5 ga qor yoki muzning tuz bilan aralashmasidan iborat sovutuvchi aralashma solib, unga sul`fat angidrid yig`iladigan U-simon nay 6 ni botirib qo`ying. Suyuq holatga o`tmagan angidridni yuttirish uchun asbobga o`yuvchi natriy eritmasi solingan yuvish sklyankasi 7 ni ulang. Oltingugurt (IV)-oksidning oksidlanishi uchun zarur bo`lgan kislorodni yasama gazometrdan oling, gazometrni kauchuk nay yordamida yuvish sklyankasi 3 ga ulang.

Asbob yig`ilgandan keyin kolba 1 dyagi probkani olib, kolbaga kontsentrlangan sul`fat kislota quying; kolba og`zini yana bekiting va ehtiyotlik bilan qizdiring. Shu vaqtning o`zida nay 4 dagi katalizatorni ham qizdira boshlang.

Oltingugurt (IV)-oksid etarli miqdorda ajralib chiqa boshlagach (buni shu gazning pufakchalari hosil bo`lganligidan bilish mumkin), kislorod yuborishni boshlang. Qislorod yubo-rishni va oltingugurt (IV)-oksid chiqishini naylardan bu gazlar yuvish sklyankasida bir xil miqdorda kelib turadigan qilib tartibga solib turing. Oltingugurt (IV)-oksid yuborishni rostlash uchun jo`mrak 8 dan foydalaning.

Asbobda oltingugurt (IV)-oksid oksidlanganligini nay 4 va 6 larda «tutun» paydo bo'lganligidan bilish mumkin. Tajribani 20—25 minut davom ettiring, bunda katalizator qattiq qizib ketmasin va gaz aralashmasi ham bir me'yorda borib tursin.



26- rasm. Sul'fat angidrid olish:

/ —sul'fat angidrid olinadigan kolba; 2— saqlagich sklyanka; 3—yuvgich sklyanka; 4—katalizatorli nay; 5 — sovituvchi aralashma solingan stakan; 6—sul'fat angidradni yig'ish uchun U-syamov nay; 7 — o'yuvchi natriy eritmasi solingan sklyanka,

Tajriba tugashiga 2-3 *min* qolganida kolba / ni qizdirishni to'xtating. Oltingugurt (IV)-oksid ajralib chiqishi deyarli to'xtagach, jo'mrak 8 ni bekiting, 1-2 *min* o'tgandan keyin esa kislorod berishni ham to'xtating. Shundan keyin asbobni qismlarga ajrating.

Agap U-simon nayda yig'ilgan sul'fat angidridni saqlab qo'yish zarur bo'lsa, nayning ikkala tirsagi og'zini vazelin surtilgan kauchuk probkalar bilan bekiting va nayni sovituvchi aralashmaga botirib qo'ying.

LABORATORIYA ISHI №17. GALOGENLARNI VODORODLI VA KISLORODLI BIRIKMALARI, ULARNI OLINISHI VA ULARNING XOSSALARINI TAXLIL QILISH. GALOGENLARNING KISLORODLI KISLOTALARI VA TUZLARINI XOSSALARINI O'RGANISH.

XLORLI SUVNING OLINISHI

Xlorli suv xona temperaturasida 2,5 hajm xlorning bir hajm suvdagi eritmasidan iborat. Xlorli suvdan xlor hidi keladi va rangi ham xlorlikiga o'xshaydi. Bundan, agar xlorning hammasi bo'lmasada, uning anchagina miqdori xlorli suvda molekulalar tarzida bo'ladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Xlorli suv olish uchun mo'rili shkaf bo'lmasa, 9- rasmda tasvirlangan asbobdan foydalanish tavsiya etiladi.

Sig'imi 150 *ml* li kolba 1 ga po'kak probka tanlang va uni ezing. Birining uzunligi 15 *sm* va ikkinchisining uzunligi 30 *sm* bo'lgan ikkita shisha nay qirqib oling. Uzun nayni rasmda ko'rsatilganidek ikki joyidan buking va uchlarini suyuqlantirib bekiting. Ezilgan probkada naylarning yo'g'onligiga mos ikkita teshik teshing va ularga shisha naylarni kiritib, probkani 2/3 qismigacha sovuq suv to'ldirilgan kolba og'ziga tiqing. Gaz o'tkazgich nayni ortiqcha xlori yuttirish uchun o'yuvchi natriyning eritmasi solingan va sig'imi 100 *ml* bo'lgan sklyanka 2 ga tushiring. Xlor olinadigan kolbani rezina nay yordamida 7-rasmda ko'rsatilganidek xlor olish asbobiga ulang.

Tajriba. Kolba 1 ni (7- rasm, B) isiting va jo`mrakni sal ochib, xlarning kuchsiz oqimini yuboring. Kolbadagi (9- rasm) suv xlorga to`yingandan keyin, kolba 1 ni qizdirishni to`xtating va xlor olish asbobidagi jo`mrak 3 ni bekiting (7- rasm, B).


Xlorli suv bor kolbani xlor olish asbobidan ajrating, og`zini yangi probka bilan bekiting va keyingi ishlar uchun qorong`i joyga qo`yib qo`ying.

Uyuvchi natriy eritmasi solingan banka 2 og`zini probka bilan bekitib, uni ham keyingi ishlar uchun saqlab qo`ying.

LABORATORIYA ISHI №18. XROM GURUHI ELEMENTLARI. XOSSALARINI O'RGANISH. XROMNING (II) VA (III) VALENTLI BIRIKMALARI, OLINISHI, XOSSALARI. XROMATLAR VA BIXROMATLAR XOSIL QILIB, XOSSALARINI O'RGANISH .

3. XROMNING OLINISHI

Tajriba. Ushbu tajriba ham temir va marganetsning olinish tajribasi kabi o'tkaziladi. Tajriba uchun yaxshilab quritilgan 35 g xrom oksid Cr_2O_3 va 16 g alyuminiy kukunidan iborat aralashma tayyorlanadi. Quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:




LABORATORIYA ISHI №19. MARGANETS GURUH ELEMENTLARINI XOSSALARINI O'RGANISH . MARGANETS BIRIKMALARI, OLINISHI VA ULARNING OKSIDLOVCHILIK XOSSALARINI MUHITGA BOG'LIQ XOLDA O'ZGARISHI KUZATISH .

2. MARGANETSNING OLINISHI

Tajriba. Mayda kukun qilib ezilgan va yaxshi qizdirilgan marganets (IV)-oksid MnO_2 oling. Alyuminiy tunukadan qaychi yordamida ingichka qirindilar qirqing. Qum to'ldirilgan shamot tigel'ga (yoki gultuvakka) 10 g marganets (IV)-oksid va 5 g alyuminiy qirindisidan iborat aralashma soling. Qirindilar reaksiya ohista borishi uchun qo'shiladi, chunki alyuminiy kukuni qo'shilganda reaksiya juda tez ketadi.

Tigelning ko'pi bilan $\frac{3}{4}$ qismigacha aralashma soling. Aralashmani temir olishdagi kabi o't oldiring. (Ehtiyot bo'ling!) Ko'zni qamashtiradigan alanga ustuni paydo bo'ladi. (Ehtiyot bo'ling! Tigeldan uzoqroqda turing). Bunda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:




Sovitilgandan keyin tigeldan marganetsning kichikroq bo'lagi olinadi. U shlakdan tozalanadi.

1.

LABORATORIYA ISHI №20. TEMIR, KOBALT, NIKEL. TEMIRNI KISLOTA VA ISHQORLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI. TEMIR, KOBALT, NIKEL GIDROKSIDLARINI OLINISHI, ULARNI XOSSALARINI BIR BIRIDAN FARQINI KUZATISH. TEMIR IONI UCHUN XARAKTERLI REAKSIYALARNI OLIB BORISH. TEMIR TUZLARINING GIDROLIZINI O'RGANIB, ERITMA MUHITINI ANIQLASH


1) Uch valentli temirni aniqlash

Tajriba. Uch valentli temir tuzlari kaliy rodanid KCNS yoki ammoniy rodanid NH_4CNS ta'sirida qizil qon rangli temir rodanid $\text{Fe}(\text{CNS})_3$ hosil qiladi. Temir (III)-xlorid eritmasiga KCNS eritmasidan quying. Quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



Eritma qizil qon rangiga kiradi.

Uch valentli temir tuzlarini ularga kaliy ferrotsianid $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ta'sir ettirib ham aniqlash mumkin. Buyda to'q ko'k rangli berlin zangorisi $\text{Fe}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]_3$ hosil bo'ladi:




2) Ikki valentli temirni aniqlash

Tajriba. Ikki valentli temir tuzining eritmasi, masalan, FeSO_4 yoki FeCl_2 eritmasi hosil qiling. Buning uchun sul`fat yoki xlorid kislota eritmasiga toza temir sim bo`laklaridan yoki temir mixdan bir nechtasini tashlang. Reaktsiya tugaganidan keyin eritmadan 1 ml ga yaqin olib, unga ammoniy rodanid qo`shing. Eritmaning rangi o`zgarmaydi.

Shundan keyin ikki valentli temirni oksidlab, uch valentli temirga aylantiring. Oksidlovchi sifatida nitrat kislotalardan foydalanish mumkin.

Tekshirilayotgan eritma solingan probirkaga bir necha tomchi nitrat kislota tomizib, salgina isitiladi. Kaliy rodanid eritmasi ta`sirida suyuqlikning qizil rangga bo`yalishi uch valentli temir borligini bildiradi.

Ikki valentli temir tuzlarini kaliy ferrotsianid $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ta`sirida to`q ko`k rangli cho`kma hosil bo`lishiga qarab ham aniqlash mumkin; bu cho`kma turnbul ko`ki $\text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2$ deyiladi, masalan:



Turnbul ko`ki berlin zangorisi singari, kislotalarda erimaydi.

